

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**
**PEDAGOGIK TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLOVCHI OLIY TA'LIM MUASSASALARI
FAOLIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI
TO'G'RISIDA**

Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lismuassasalarini tizimli rivojlanterish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'limgasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangibosqichga ko'tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta'limgast, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida:

1. Quyidagilar:

Urganch davlat universiteti pedagogika ta'limgastasining bakalavriat ta'limgast yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklari negizida Urganch davlat pedagogika instituti;

Namangan davlat universiteti pedagogika ta'limgastasining bakalavriat ta'limgast yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklari negizida Namangan davlat pedagogika instituti;

Guliston davlat universiteti pedagogika ta'limgastasining bakalavriat ta'limgast yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklari negizida Guliston davlat pedagogika instituti;

Samarqand davlat universitetining O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti negizida O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti;

Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti negizida Andijon davlat pedagogika instituti;

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti negizida Buxoro davlat pedagogika instituti;

Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti negizida Termiz davlat pedagogika instituti;

Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti negizida Shahrisabz davlat pedagogika instituti;

Chirchiq davlat pedagogika instituti negizida Chirchiq davlat pedagogika universiteti;

Jizzax davlat pedagogika instituti negizida Jizzax davlat pedagogika universiteti tashkil etilsin.

2. Oliy va o'rta maxsus ta'limgast vazirligi (A. Toshkulov), Xalq ta'limi vazirligi (B. Saidov), Maktabgacha ta'limgast vazirligi (A. Shin) hamda Ta'limgast sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (U. Tashkenbayev) pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'limgastasalarida ta'limgast sifatini oshirish uchun:

a) 2022-yil 1-sentabrga qadar:

pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarining ta’lim dasturlarini xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikda qayta ko‘rib chiqsin va ularni Milliy malaka ramkasi, Ta’limni xalqaro standart klassifikatori (MSKO-2011) va xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS) talablariga;

pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida akademik mobillikni yo‘lga qo‘yish uchun ularning o‘quv rejalarini va ta’lim dasturlarini bir-biriga muvofiqlashtirsin;

b) 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab:

ta’lim dasturlarining o‘zaro uyg‘unligi va uzluksizligini ta’minlash maqsadida maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’limda foydalilaniladigan darsliklar hamda metodik qo‘llanmalarni pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalariga ularning talabnomasiga muvofiq pullik asosda taqdim etish tartibini joriy qilsin;

pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 2 — 4-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari “4+2” tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta’lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tash tartibida olib borilishini ta’minlasin;

v) 2023-yil 1-sentabrga qadar pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida ularning budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan zamonaviy uskunalar va jihozlar bilan ta’minlangan fizika, kimyo, biologiya va texnologik ta’lim fanlari bo‘yicha o‘quv laboratoriyalarni tashkil etsin;

g) 2024-yil 1-yanvarga qadar pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari uchun “Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish” axborot tizimida elektron o‘quv dasturlar, darsliklar, ilmiy-tadqiqot ishlari, maqolalar, taqdimotlar, multimedia ta’lim mahsulotlari, ma’ruzalarning audio va video yozuvlari hamda boshqa kontentlarni joylashtirsin;

d) 2024-yil 1-sentabrga qadar pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoniga talabalarda mustaqil ta’lim olish, tizimli tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodikalarni joriy qilsin;

e) har yili pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari ixtisoslik kafedralarining kamida 5 foiz professor-o‘qituvchilarini ushbu muassasalarning budgetdan tashqari jamg‘armalari hisobidan xorijiy davlatlarga tanlov asosida malaka oshirish va stajirovkaga yuborish choralarini ko‘rsin.

3. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (I. Norkulov) Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (A. Toshkulov), Xalq ta’limi vazirligi (B. Saidov) hamda Moliya vazirligi (T. Ishmetov) bilan birgalikda oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat

buyurtmasi parametrlarini shakllantirishda ehtiyojdan kelib chiqib, pedagogik ta’lim yo‘nalishlari uchun ajratiladigan davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari miqdorini bosqichma-bosqich oshirib borish choralarini ko‘rsin.

4. Belgilansinki, 2023/2024 o‘quv yili qabulidan boshlab pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarining: mazkur qarorga 1-ilovada ko‘rsatilgan ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha sirtqi ta’lim shakliga qabul amalga oshirilmaydi; mazkur qarorga 1-ilovada ko‘rsatilmagan pedagogika sohasidagi ta’lim yo‘nalishlariga sirtqi ta’lim shakli bo‘yicha o‘qishga ta’lim tizimida pedagogik faoliyatga oid kamida besh yillik ish stajiga ega bo‘lgan shaxslar qabul qilinadi.

Bunda, pedagogika sohasidagi ta’lim yo‘nalishlarida sirtqi ta’lim shakli bo‘yicha o‘qish istagida bo‘lgan shaxslarning ta’lim tizimida kamida besh yillik pedagogik ish stajiga ega ekanligi “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksidagi ma’lumotlar asosida belgilanadi.

5. Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligi (A. Toshkulov) Xalq ta’limi vazirligi (B. Saidov) bilan birgalikda 2023-yil 1-yanvarga qadar pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari bakalavriatida tahsil olayotgan talabalar uchun ularning ta’lim yo‘nalishlariga turdosh bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha qo‘srimcha pedagogik tayyorlov dasturlarini (keyingi o‘rinlarda — dasturlar) ishlab chiqsin va amaliyotga joriy qilsin.

Belgilansinki:

dasturlar bo‘yicha o‘qishga pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari bakalavriatining so‘nggi ikki bosqichida tahsil olayotgan talabalar qabul qilinadi; dasturlar bo‘yicha o‘qitish talabalarning oliy ta’lim muassasasida tahsil olishdan bo‘sh bo‘lgan vaqtida pullik asosda amalga oshiriladi. Bunda, manfaatdor vazirlik, idoralar va tashkilotlar tomonidan dasturlar bo‘yicha o‘qitish uchun grant ajratilishi mumkin;

dasturlarni o‘zlashtirganlik to‘g‘risidagi sertifikatga ega shaxslarga oliy ta’lim tashkilotida o‘qishni bitirganidan so‘ng qayta tayyorlash kurslaridan o‘tmasdan sertifikatda ko‘rsatilgan mutaxassislik bo‘yicha maktabgacha, umumiy o‘rtta, o‘rtta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi beriladi.

6. 2023/2024 o‘quv yildan boshlab pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarining qo‘shma ta’lim dasturlarida ta’lim olayotgan talabalarning hamkor xorijiy oliy ta’lim muassasasida o‘qish davri uchun to‘lov-kontrakt qiymatini Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan qoplab berish tartibi joriy etilsin.

Belgilansinki, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari bakalavriati va magistraturasida qo‘shma ta’lim dasturlari

asosida tahlil olayotgan talabalarining hamkor xorijiy oliy ta'lim muassasasida o'qish davri uchun to'lov-kontrakti qiymatini Davlat budgeti mablag'lari hisobidan qoplab berish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining qo'shma ta'lim dasturlarida to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan va yuqori akademik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan talabalari o'rtaida tanlov o'tkaziladi;

tanlovda g'olib bo'lgan talabalar bilan davlat maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida kamida uch yil ishlab berishni nazarda tutuvchi shartnoma rasmiylashtiriladi;

pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining qo'shma ta'lim dasturlarida ta'lim olayotgan talabalarining to'lov-kontrakti qiymatini qoplash uchun mablag'lar O'zbekiston Respublikasining respublika budgetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida tegishinchcha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Maktabgacha ta'lim vazirligiga ajratiladi;

pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining qo'shma ta'lim dasturlarida ta'lim olayotgan talabalarining to'lov-kontrakti qiymatini qoplash uchun ajratiladigan mablag'lar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Maktabgacha ta'lim vazirligining Moliya vazirligi G'aznachiligidagi ochilgan alohida shaxsiy g'azna hisobvarag'ida nazarda tutiladi.

7. "El-yurt umidi" jamg'armasi (A. Bekmurodov) 2023-yildan boshlab pedagogika sohasi bo'yicha nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat, magistratura, doktorantura dasturlari asosida kadrlar tayyorlash uchun "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiyalari hisobidan har yili tasdiqlangan umumiy qabul kvotalari doirasida pedagog kadrlar uchun kamida 35 ta alohida kvota ajratilishini ta'minlasin.

8. Quyidagilar:

2022 — 2026-yillarda pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" 2-ilovaga muvofiq;

2023 — 2026-yillarda pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari 3.1 — 3.13-ilovalarga muvofiq;

pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari fakultetlarini maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalariga biriktirish jadvali 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari ularga biriktirilgan maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim

muassasalari bilan oliy ma'lumotli pedagog kadrlar tayyorlash va o'qituvchilarni uzlusiz kasbiy rivojlantirish masalalarida yaqindan hamkorlik qiladi, shu jumladan ta'lim muassasalarida mahorat darslari hamda talabalar amaliyatini tashkil etadi, ushbu muassasalarga o'quv-metodik jihatdan yordam ko'rsatadi.

9. Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari huzurida tashkil etiladigan akademik litseylar ro'yxati 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Quyidagilar pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari huzurida tashkil etiladigan akademik litseylar faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

Davlat budgeti mablag'lari;
tegishli pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasasining budgetdan tashqari mablag'lari;
xo'jalik va tadbirkorlik faoliyatidan tushadigan mablag'lar;
jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyaları;
xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari;
qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

10. Belgilansinki:

2023/2024 o'quv yilida tajriba-sinov tariqasida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari huzuridagi akademik litseylarga qabul ikki bosqichli saralab olish tizimi — dastlabki yozma imtihon hamda test sinovlari asosida tashkil etiladi. Bunda, dastlabki yozma imtihon va test sinovlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son qarori talablariga muvofiq amalga oshiriladi; ro'yxati 5-ilovada belgilangan ta'lim muassasalarining bino va inshootlari operativ boshqaruvi huquqi asosida akademik litseylar tashkil etish uchun pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalariga bepul beriladi; mazkur qarorga muvofiq pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalariga berilayotgan ta'lim muassasalarining o'quvchilari o'qishini ushbu muassasalarda amaldagi o'quv dasturlari asosida tugatadi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshkulov) mazkur qarorga 5-ilovada ko'rsatilgan akademik litseylar faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son qarori talablariga muvofiq tashkil qilsin.

11. Xalq ta'limi vazirligi (B. Saidov) 2022/2023 o'quv yilidan boshlab umumiyo'rtta ta'lim muassasalarining pedagog kasbiga layoqati mavjud bo'lgan 10-11-sinf o'quvchilarini maxsus ishlab chiqilgan variativ o'quv rejalarini asosida o'qitish choralarini ko'rsin.

12. Ta’limning barcha bosqichlarida uzviylik va uzlusizlikni ta’minlash maqsadida Pedagogik ta’limni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashi (keyingi o‘rinlarda — Kengash) 6-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilsin va quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilansin:

maktabgacha, umumi o‘rta va o‘rta maxsus, pedagog kadrlar tayyorlovchi professional va oliy ta’lim muassasalari, sohada faoliyat yuritayotgan ilmiy va malaka oshirish tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro aloqalarni ta’minlash va mustahkamlash;

mamlakatda pedagogik ta’limni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash, uning uzoq va o‘rta muddatli strategik dasturini tasdiqlash hamda amalga oshirilishini nazorat qilib borish;

pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejalarini va ta’lim dasturlarining o‘zaro uzviyligini, shuningdek, maktabgacha, umumi o‘rta, o‘rta maxsus, professional hamda kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta’lim muassasalarining dasturlari bilan uzlusizligini ta’minlash;

ta’lim muassasalarining pedagogika sohasidagi ijobiy tajribasini, shuningdek, o‘qitish va ta’lim oluvchilar bilimlarini baholashning zamonaviy uslublarini ommalashtirish;

pedagogika sohasida ilm-fan va ta’limni rivojlantirishga oid dolzarb muammolarni aniqlash, ularni keng jamoatchilik ishtirokida, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlar orqali muhokama qilish va ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ularning yechimi bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash;

pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ta’lim dasturlari va darsliklarni takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqish. Belgilab qo‘yilsinki, Kengash tomonidan tayyorlangan takliflar tegishli vazirlik va idoralar hamda davlat ta’lim va ilmiy muassasalari tomonidan majburiy tartibda ko‘rib chiqiladi, ular Kengashga o‘z vazifalarini amalga oshirishda har tomonlama ko‘mak beradi, so‘ralgan zarur ma’lumotlarni taqdim etib boradi.

13. Belgilab qo‘yilsinki:

mazkur qarorning 1-bandida tashkil etilishi nazarda tutilgan pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga hamda shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga ega bo‘ladi;

mazkur qarorning 1-bandida tashkil etilishi nazarda tutilgan pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari yuridik shaxs sifatida tashkil etiladi, davlat oliy ta’lim muassasalari hisoblanadi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida faoliyat yuritadi;

mazkur qarorning 1-bandida tashkil etilishi nazarda tutilgan pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini

moliyalashtirish manbalari etib Davlat budgeti, talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan, shartnomalar asosida xizmat ko‘rsatishdan tushadigan mablag‘lar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari, jiismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, shuningdek, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisoblanadi;

mazkur qarorning 1-bandida tashkil etilishi nazarda tutilgan pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni 2022/2023 o‘quv yildan boshlanadi;

2022/2023 o‘quv yilida Urganch davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, Guliston davlat universitetining pedagogika ta’lim sohasining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va ularning negizidagi tegishli magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha qabul qilingan talabalar o‘qishlarini tegishliliqi bo‘yicha Urganch, Namangan va Guliston davlat pedagogika institutlarida boshlaydi;

Samarqand davlat universitetining O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti, Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti, Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti, Chirchiq davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika institutida tahsil olayotgan talabalar bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha tegishliligiga ko‘ra mazkur qarorning 1-bandida tashkil etilishi nazarda tutilgan pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni davom ettiradi hamda ularga o‘qish yakuni bo‘yicha ushbu oliy ta’lim muassasalarining diplomi beriladi;

mazkur qarorning 1-bandida tashkil etilishi nazarda tutilgan pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga davlat granti asosida qabul qilinadigan talabalarning soni real ehtiyojdan kelib chiqib, har yili tasdiqlanadigan respublika oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish parametrlarida belgilanadi;

mazkur qarorga muvofiq yangidan tashkil etilayotgan Urganch, Namangan va Guliston davlat pedagogika institutlari faoliyatini moliyalashtirish 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasining respublika budgetidan birinchi darajali budget mablag‘larini taqsimlovchi sifatida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga ajratiladigan mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi, 2023-yildan boshlab esa Davlat budgeti parametrlarida nazarda tutiladi;

mazkur qarorga muvofiq yangidan tashkil etilayotgan Urganch, Namangan va Guliston davlat pedagogika institutlarining dastlabki faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar, shu jumladan joriy ta’mirlash va zarur jihozlarni xarid qilish ishlari Oliy va o‘rta maxsus

ta’lim vazirligining Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

14. Quyidagilar:

Urganch davlat universitetining Urganch shahar, Gurlan ko‘chasida joylashgan bino va inshootlari tegishli hududi hamda mavjud barcha jihozlari bilan birgalikda Urganch davlat pedagogika institutiga;

Namangan davlat universitetining Namangan shahar, Uychi ko‘chasi, 316-uy va Bobur Shoh ko‘chasi, 81-uy manzillarida joylashgan bino va inshootlari tegishli hududi hamda mavjud barcha jihozlari bilan birgalikda Namangan davlat pedagogika institutiga;

Guliston davlat universiteti akademik litseyining Guliston shahar, 4-mavze, Bo‘ston mahallasi hududida joylashgan bino va inshootlari tegishli hududi bilan birgalikda Guliston davlat pedagogika institutiga operativ boshqaruv huquqi asosida bepul berilsin.

Guliston davlat universitetining akademik litseyi universitetning Guliston shahar, 4-mavze, Bo‘ston mahallasi hududidagi San’atshunoslik fakulteti binosiga joylashtirilsin.

15. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘srimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

16. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri A.X. Toshkulov, xalq ta’limi vaziri B.O. Saidov hamda maktabgacha ta’lim vaziri A.V. Shin belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvxitov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,

2022-yil 21-iyun,

PQ-289-son